

TILSHUNOSLIK FANINING PAYDO BO‘LISHI

Ahmadjonova Charosxon Xaydarali qizi

Andijon davlat chet tillari institute Ingliz filologiyasi,

o‘qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti

Filologiya va tillarini o‘qitish (xitoy tili) yo‘nalishi

XF-25-2-guruh talabasi

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, materialistik tilshunoslik, Idealistik tilshunoslik, qadimgi hind tilshunosligi, klassik tilshunoslik, arab tilshunosligi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslik fanining kelib chiqishi va tarixiy shakllanish bosqichlari hamda uning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan omillar ilmiy asosda tahlil qilingan. Tilning ijtimoiy mohiyati, materialistik va idealistik yondashuvlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik hamda ularning lingvistik nazariyalarning shakllanishidagi o‘rni yoritilgan.

Keywords: materialistic linguistics, idealistic linguistics, ancient Indian linguistics, Arabic linguistics.

Ключевые слова: лингвистика, материалистическая лингвистика, идеалистическая лингвистика, древнеиндийская лингвистика, классическая лингвистика, арабская лингвистика

Annotation: This article provides a scholarly analysis of the origins of linguistics, the stages of its historical development, and the factors that influenced its evolution. It explores the social nature of language, the contradiction between materialistic and idealistic approaches, and their role in the formation of linguistic theories.

Аннотация: В данной статье научно проанализированы происхождение лингвистики, этапы её исторического формирования, а также факторы, повлиявшие на её развитие. Освещаются социальная сущность языка, противоречия между материалистическим и идеалистическим подходами и их роль в формировании лингвистических теорий.

Til insoniyat jamiyatining eng muhim aloqa vositasi bo‘lib, uning mohiyati, kelib chiqishi va taraqqiyoti haqida qadimdan beri turli qarashlar mavjud. Tilshunoslik esa ushbu jarayonlarni ilmiy asosda o‘rganadigan fan hisoblanadi. Tilshunoslikning shakllanishi uzoq tarixiy bosqichlarni bosib o‘tgan bo‘lib, uning taraqqiyoti jamiyat rivoji, falsafiy qarashlar va ilmiy tafakkur bilan bevosita bog‘liqdir. Ushbu maqolada tilshunoslik fanining paydo bo‘lishi, qadimgi davr tilshunosligi va zamonaviy tilshunoslikka o‘tish jarayoni yoritiladi.[1]

Til jamiyat taraqqiyotining mahsuli bo‘lib, u jamiyat ehtiyojlari asosida shakllanadi. Til tarixi bilan shug‘ullanuvchi tilshunoslar tilning kelib chiqishi, uning

ijtimoiy funksiyalari, taraqqiyot bosqichlari hamda tillar o'rtasidagi qarindoshlik masalalarini o'rganadilar. Tilshunoslik haqidagi nazariyalar ko'pincha umumiy tilshunoslikning asoslariga tayanadi. Shuning uchun tilni ilmiy o'rganishda keng falsafiy qarashlar — xususan, materialistik falsafani chuqur bilish talab etiladi.

Tilshunoslik tarixida materialistik va idealistik yo'nalishlar o'rtasidagi kurash muhim o'rin tutadi.

Materialistik tilshunoslik tilni jamiyatning ijtimoiy mahsuli sifatida izohlaydi, uning mohiyatini obyektiv ilmiy tamoyillar asosida tushuntiradi.

Idealistik tilshunoslik esa, aksincha, tilni abstrakt tushunchalar orqali sharhlashga urinadi va ko'pincha obyektiv asosga ega bo'lmagan xulosalarga keladi.

Mazkur ikki yondashuv o'rtasidagi tafovut tilshunoslikning turli maktablari va nazariyalarini shakllanishiga sabab bo'lgan.

Til haqidagi nazariyalar tarixini shartli ravishda ikki davrga bo'lish mumkin:

1. Qadimgi tilshunoslik nazariyalari — qadimgi hind, yunon-rim klassik tilshunosligi va arab tilshunosligi davri.

2. Qiyosiy–tarixiy metod shakllanganidan keyingi nazariyalar — XIX asr boshidan boshlab rivojlangan ilmiy tilshunoslik.

XIX asr boshlarida umumiy va qiyosiy-tarixiy tilshunoslik fan sifatida shakllangan bo'lsa-da, undan avvalgi davrni “ilmiy bo'lmagan davr” deb baholash to'g'ri emas. Zveginsev ta'kidlaganidek, qadimgi tilshunoslikni ilmiy tilshunoslikdan ajratish shart, ammo uni ilmiy bo'lmagan deb baholash noto'g'ri yondashuvdir. [1]

Tilshunoslik tarixining ayrim mutaxassisleri, jumladan, N.A.Kondrashov qadimgi Hindistonni til haqidagi fanning beshigi sifatida baholaydi. Davr o'tishi bilan qadimgi yozma yodgorliklarning turli o'zgarishlarga uchragan unsurlarni (so'z va qo'shimchalarini) qayta tiklash, izohlash lozim bo'lgan. Buning uchun hind olimlari eramizdan 15 asr ilgari (ba'zi tadqiqotchilarning fikricha; 45-25 asr ilgari) yozilgan Vedalarni (o'n kitobdan iborat bo'lgan diniy madhiyalar)-gimnlar, diniy qo'shiqlar va afsonalar to'plamini eramizdan ilgarigi birinchi ming yillarda yozilgan sanskrit yodnomalarini o'rganganlar va tahlil qilganlar. [2]

Arab tilshunosligi VII-XIII asrlarda bir necha mamlakatni o'ziga birlashtirgan qudratli davlat-arab xalifaligi davrida maydonga keladi. Bu haqida taniqli nazariyotchi olim, professor R.Rasulov quyidagilarni yozadi: “Arab xalifaligida tilshunoslikning paydo bo'lishi va rivojlanishi, “Hindistondagi kabi, amaliy ehtiyojlar bilan bog'lanadi. Ya'ni bu davrda eski yodgorliklar va Qur'on tili bilan jonli arab tili (shevalari) orasida katta farqlanish yuzaga keladi. [2]

Tilshunoslikning paydo bo'lishi uzoq tarixiy jarayon bo'lib, uning shakllanishiga falsafiy qarashlar, jamiyat taraqqiyoti va qadimgi madaniyatlarning ilmiy an'analari katta ta'sir ko'rsatgan. Qadimgi hind, klassik yunon-rim va arab tilshunosligi hozirgi zamonaviy tilshunoslikning asosi sifatida xizmat qilgan. XIX asrda qiyosiy–tarixiy

metodning shakllanishi bilan tilshunoslik mustaqil ilmiy fan sifatida rivojlanib, bugungi kunda keng qamrovli nazariy va amaliy sohaga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Musayev A. Umumiy tilshunoslik (o'quv qo'llanma)– Toshkent: «Oltin kitob» nashriyoti, 2022. 12-bet.
2. Turobov A.M. Umumiy tilshunoslik (O'quv qo'llanma) Samarqand-2020, 18-bet.

